

**“TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISH VOSITASIDA BOLA NUTQINI  
O‘STIRISHNING AHAMIYATI”**

**Madina Uktamovna Shukurova**

*Osiyo Xalqaro Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasи o‘qituvchisi*

**Karimova Nodira Rustam qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti talabasi*

---

**Annotatsiya:** Tevarak-atrof bilan tanishtirish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish. Bolalar nutqini rivojlantirish uchun ma’lum bir tizimda ish olib borish maqsadga muvofiq. Buning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda bog‘lanishli nutqni o‘stirish dasturini takomillashtirish va uni bir butun, yaxlit jarayon sifatida tarbiya tizimiga kiritish hamda mazmunini belgilash zarur.

**Kalit so’zlar:** ma’nodosh, uyadosh, xususiyat, shaxsiy qobiliyat, jarayon, shaxsiy hayot, tevarak-atrof rivojlantirish, texnologiya, tabiat.

---

Tevarak-atrofni o‘rganish jarayoni bola tafakkurini rivojlantirishda boshqa hech narsa bilan almashtirish mumkin bo‘lmagan hissiy rag‘batlanirishga sabab boidi. Bunday rag‘batlanish bog‘cha yoshidagi katta bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Chunki tevarak-atrofdagi predmetlar, voqeliklar asosida tug‘iladigan hissiyot bola tafakkurida rivojlanib, uning tiliga, jonli ifodaga ko‘chadi. Shuning uchun ham bolaning tevarak-atrofdagi voqelikni bilib borishi, uning go‘zalligini, bitmas-tuganmas murakkabliklarini his etishi, ijtimoiy munosabatlar va kattalar dunyosiga kirib borishi, uning har tomonlama kamol topishi bilan birga, bog‘lanishli nutqining ham boyib, shakllanib borishiga olib keladi. Zero, bolalik dunyoni zavqlanib, hissiyotlarga to‘lib idrok etish, uni kashf etish bilan uyg‘undir. Ma’lumki, pedagogik texnologiya deganda o‘quv-tarbiya jarayonini oldindan ma’lum tizimda uzviy loyihalash, ma’lum pedagogik tizimning hayotda amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi degan ma’no tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish ham ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya’ni bolalarda nutqni rivojlantirish maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari ifodalangan bir butun tizim texnologiyasidir. Biz hozirgi davr talabi darajasida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning bir butun tizimi, mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab chiqdik hamda eng yangi talablar darajasida uni amalga oshirish metodlari, shakllari va vositalari texnologiyasini ishlab chiqdik. Nutqda eng muhim metod bu dialogik nutq, ya’ni bolalar bilan so‘zlashishdir. So‘zlashish og‘zaki nutqning eng oddiy shakli bo‘lib, unda bola o‘zini tutishi, ko‘z qarashi, xatti-harakati, ovozining pastbalandligi, tezligi kabi turli holatlar hisobga olinadi. So‘zlashish - dialogik nutq, asosan kattalar yordamida amalga oshiriladi va u ayniqsa, tevarak-atrofni bilish jarayonida yaxshi natijalar beradi. Jumladan, jamoat joylarida,

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

10-Mart, 2025-yil

ko‘pchilik o‘rtasida nutq madaniyatiga rioya etishga e’tibor qaratiladi. ; Bunda bir-birining nutqini to‘ldirib borish, tuzatishlar kiritish, so‘rash, so‘rab bilib olish' dialogik nutqqa o‘rgatishning usullari sanaladi. Maxsus tayyorlanadigan muloqotlar esa dastur asosida muayyan mavzular bo‘yicha uyushtiriladi. Masalan, maxsus tayyorlangan suhbatlar quyidagicha tuziladi: dastlab mavzu belgilanadi, uning maqsadi, vositalari aniqlanadi, savollar tuziladi. Lekin bulaming har biri nimaga? nima uchun? nimadan? qanday qilib? kabi izlanuvchi va muammoli savollar tarzida bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, savollar, umumlashtiruvchi xarakter kasb etishi ham mumkin. Bunda muloqot mashg‘uloti suhbat, muqaddima, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘ladi. Sayr-sayohatlardagi suhbatlardan maqsad, bir tomondan, bolalami tevarak-atrof, o‘simplik va hayvonot aunyosi bilan tanishtirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularda mavsumiy o‘zgarishlaming yuz berishi bilan bog‘liq nutqini shakllantirish hamdir. Sayohatga tayyorgarlik jarayonida bolalarga mavsumiy kiyinish va ayni paytdagi faslga xos xususiyatfar haqida ma’lumot beriladi. Sayohat davomida tarbiyachi bolalarga dov-daraxtlardagi o‘zgarishni kuzatish vazifasini topshiradi. Buning uchun quyidagicha savollar bilan murojaat qilish mumkin: - Bahorda va yozda (kuz va qishda) daraxtlaming bargi qanday rangda edi? - Hozir daraxtlaming bargi qanday tus olibdi? - O‘t-o‘lanlaming rangi-chi? - Daraxtlardagi mevalar qaysi faslda pishadi? - Kapalaklar bahordagidan, yozdagidan ko‘pmi, ozmi? - Kuz fasli nimasi bilan go‘zal? - Qish fasli-chi? Bolalar bu savollarga javob berar ekan, olma, xurmo barglarini solishtiradilar. Olma bargi sariq, to‘q sariq, qirmizi rangda rangini tovlanishi, xurmo barglaridan hali yashillik ketmaganligi, o‘t-o‘lanlar ham birin-ketin sarg‘aya boshlaganligini ko‘radilar va olmalardan keltirgan savatlariga, yelim xaltalarga solib oladilar. Xurmolar hali terib olinmagani, ammo to‘q sariq rangda yal-yal tovlanishi, uni birdaniga daraxtdan uzib, yeb bo‘lmasligi, 3-4 kun uyda saqlab, yumshay boshlagandan keyingina yeyish mumkinligi, o‘shanda meva totli bo‘lishi tushuntiriladi. Bu sayrda bolalar yeb ko‘rgan, ammo daraxtini, unda mevalarning pishishini ko‘rmagan xurmo haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bahor kelsa, bog‘chalari hovlisiga ham xurmo ko‘chati o‘tqazishga kelishadilar. Sayr oxirida bolalar qizil, sariq, qirmizi barglardan terib, gulchambar yasaydilar. Bunday sayrlar bolalaming dunyoqarashini shakllantirishga, lug‘at boyligini oshirishga, nutqini boyitishga yordam beradi. Kuz faslida qushlaming uchib ketishi haqida ham maroqli suhbat uyushtirish mumkin. Suhbatdan maqsad - bolalaming kuzda qushlaming (qaldirg‘och, chug‘urchuq va boshqalar) uchib ketishi, qarg‘alaming uchib keljshi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va qushlar dunyosini kuzatishga qiziqtirish bo‘ladi. Suhbatga tayyorlanish jarayonida tarbiyachi quyidagi savollami belgilab olishi mumkin: - Yozda qanday qushlarni ko‘rgansiz? Qaysi qushlaming ovozini eshitgansiz? - Qushlami tanib, bilib olishda sizga kim yordam bergen? - Qushlar kuz oxirida nima uchun issiq o‘lkalarga uchib ketadi? - Qishda nima uchun pashsha, chivin, kapalak va qo‘ng‘izlar ko‘rinmay qoladi? - Hovlingizda musicha va maynalar bormi? Ular nega uchib ketmaydi? Mazkur savollarga javoblar, albatta, tarbiyachi tomonidan to‘ldirilib, tuzatib boriladi. Bolalar uchun talay yangiliklar ham ma’lum bo‘lib, bu yangiliklami zukkolik bilan o‘zlashtirib olganliklari

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

10-Mart, 2025-yil

ulaming nutqlarida ham namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, hozirgi davrda deyarli ko‘pchilik xonadonlarda to‘tilar parvarish qilinadi. Shuning uchun, to‘tilar hayoti bilan bog‘liq savollar asosidagi suhbat bolalarning qiziqishini yanada oshiradi hamda bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, bolalarning tevarak-atrof bilan muloqoti qancha ko‘p bo‘lsa, ulaming bog‘lanishli nutqi shunchalik samarali rivojiana boradi. Tevarak-atrofdagi rangin dunyo ular tasavvuri va dunyoqarashini shakllantirishga, so‘z zaxirasini boyitishga, nutqini o‘stirishga rag‘bat uyg‘otadi. Ayniqsa, qish fasli bilan bog‘liq mashg‘ulotlar bolalarning qiziqishiga yanada mos tushadi. Masalan, bog‘cha hovlisida qor yog‘ishini kuzatish jarayonida quyidagi savollar asosida suhbat uyuştirish mumkin: - Qor uchquni nimaga o‘xshaydi? - Nima uchun qor uchquni kapalakka o‘xhatiladi? - Qor uchqunlari nima uchun har xil bo‘ladi? - Qorda yurganida odam nima uchun sovqotadi-yu, qorbo‘ron o‘ynaganida isib ketadi?. - Qor odam qachon erib ketadi? : - U nima uchun erib ketadi? - Sirpanchiq o‘ynash uchun nima qilish kerak? ; Savol-javob jarayonida tarbiyachi bolalarni kundalik hayat bilan tanishtira boradi, tabiatdagi o‘zgarishlami kuzatish vositasida bilimini boyitadi, nutqini rivojlantiradi. Savol-javob orqali bolalar qor uchqunlarining har xil shaklda bo‘lishi, uning turli tezlikda yog‘ishi sabablarini bilib oladilar, havo harorati bilan bog‘liq o‘zgarishlami tushunib yetadilar, qish mavsumidagi qiziqarli mehnat jarayoni bilan tanishadilar; qor kurash, supurish, qor bosgan joylarda qushlarga don tashlash uchun joylar tayyorlash kabi ishlami zavq-shavq bilan, hamkorlikda bajaradilar va tarbiyachi, tengdoshlari bilan faol muloqotda bo‘ladilar. So‘zlashuv jarayonida ishlatiladigan «qor uchqunlari», «kapalak qor», «lo‘ppi-lo‘ppi qor uchquni», «qor kurash», «muz yo‘lak», «don xo‘rak», «qor odam», «muz tepa» kabi so‘z va so‘z birikmalari dialogik nutqni shakllantirishga yo‘l ochadi. Nutq o‘stirishga oid mashg‘ulotlar samaradorligini ta’minalashda mavzulaming qiziqarliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, «Boychechakning ochilishi» mavzusidagi ertalik o‘tkazish fikrimiz dalilidir. Bolalar bog‘chasimng katta guruhida ertalikka tayyorlanishda bolalar rollarga bo‘linib, boychechak haqidagi she’rlar va qo‘shiqlar tarqatiladi. Guruh xonasi ertalikkacha qog‘ozdan ishlangan boychechak, binafsha, lola kabi gullar bilan bezatiladi. Ertalik «Boychechab» qo‘srig‘i bilan boshlanadi. Ikki bola «Boychechak» qo‘srig‘ini galma-gal ijro etadi. Jarchi bola boychechak tergani hammani dalaga chorlaydi. Bolalar «Dala»da boychechaklar - qog‘ozdan yasalgan gullami tera boshlaydilar va qo‘sinq kuylaydilar, raqs ijro etadilar. Qo‘sinq ijrosi va raqlarda guruhning barcha a’zolari ishtirok etadilar. «Boychechakning ochilishi» bilan bir qatorda «Gullar bayrami» ham bolalar sevib o‘tkazadigan ertaliklardandir. Uni o‘tkazishdan oldin guruhdagi barcha bolalarga gullar haqida she’r, topishmoq, raqlar bo‘lib beriladi, bolalar «Gulchi qiz», «Boychechak», «Binafsha», «Lola», «Atirgul», «Rayhon», «Chuchmoma», «Bo‘tako‘z», «Gulsafsar», «Nomozshomgul», «Gulbeor», «Gulxayri» va boshqa gullar timsolidha she’rlar yodlaydilar. Bu xildagi ertaliklar bolalarda ham esteik didni tarbiyalash, ham nutqni rivojlantirish usullari, vositalari sifatida katta yordam beradi. Savol-javoblar asosida suhbatlar o‘tkazish orqali bolalarda nutqqa oid muayyan darajada malaka hosil qilgach, hikoya tuzishga

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

10-Mart, 2025-yil

o‘rgatgan ma’qul. Mashg‘ulot: Mavzu: Tevarak-atrof bilan tanishtirish. Bolalarni narsalarning sifati va xususiyati bilan tanishtirish. Maqsad: Tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning xilma-xil sifatlarini («tiniq», «xira», «qattiq») aytishni o‘rgatish. Ravon nutqini o‘stirish, lug'atlarini («tiniq», «xira», «qattiq») so‘zlari bilan boyitish va faollashtirish. Bolalar diqqatini («tiniq», «xira») so‘ziga qaratish. Mashg‘ulot uchun material: Shakli, kattaligi bir xilda bo‘lgan ikkita stakan, ammo biri shisha (tiniq), ikkinchisi qog‘oz (xira) stakan bo‘lishi kerak. Bolalar soniga yetarli (tiniq) shishali buyumlar (stakan, banka, butilka, ryumka, fujer va hokazo). Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi mashg‘ulotni topishmoqli o‘yin bilan boshlaydi. Bolalarga ikkita stakanni ko‘rsatib: Bular nima? Ular nimadan yasalgan? deb so‘raydi. So‘ngra tarbiyachi stakanlarning ichiga biror narsani (bir bo‘lak oq qand yoki konfet, sharcha va hokazo) soladi va bolalardan uning ichida nima borligini topishni aytadi. Bolalar juda yengillik bilan tiniq stakanda nima borligini topadilar, ammo xira (tiniq bo‘lmagan) qog‘oz stakan ichida nima borligini taxminlab (tavakkal qilib, tusmollab) aytadilar. Ular qog‘oz stakan ichida nima borligini to‘g‘ri topa olmaydilar. O‘yin ikki-uch marta takrorlangach, tarbiyachi bolalardan tiniq stakanni ko‘rsatib: nima uchun bu stakan ichidagi narsa nima ekanligini tez topdingiz? aksincha tiniq bo‘lmagan qog‘oz stakanni ko‘rsatib: bu stakan ichidagi narsa nima ekanligini topishda qiyndalingiz? deb so‘raydi. Bolalar bunday savolga quyidagicha javob berishadi: Chunki shisha stakan tiniq, bunisi esa xira (tiniq emas). Shisha stakan ichidagi narsa ko‘rinib turibdi. Qog‘oz stakan ichida qanday narsa borligi ko‘r;nmaydi. Bolalarning javoblaridan shu narsa ko‘rinib turibdiki, ular narsaning asosiy belgisini ajrata oldilar, shuning uchun narsaning sifatini bildiruvchi so‘zni bolalar lug‘atiga kiritish kerak. So‘ngra tarbiyachi bolalarga yana murojaat etadi «Bu stakan ichi- - dagi narsa ko‘rinib turadi, u tiniq. Bu stakan esa tiniq emas, shuning uchun uning ichidagi narsa ko‘rinmaydi». Keyin ikki-uch bolaga tiniq, xira (tiniq bo‘lmagan) stakanlami ko‘rsatishni taklif etadi. Mashg‘ulotning keyingi qismida tarbiyachi bolalarga shishali narsalami tarqatib chiqadi (stakan, banka va bankachalar, butilka va butilkachalar, shishali guidon va hokazo)

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O ‘YINLAR. *PEDAGOOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
2. O‘ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 357-360.
3. Oktam’s, S. M. (2023). Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 104-108.

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

10-Mart, 2025-yil

4. O’ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 96-99.
5. Shukurova, M. (2023). METHODS AND METHODS OF INCREASING CHILDREN'S SPEECH IN A PRESCHOOL ORGANIZATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 477-480.
6. Shukurova, M. O. K. (2024). Growing children's speech in the process of introducing them to the environment and nature. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 130-135.
7. Shukurova, M. (2024). OILADA FARZAND TARBIYASIDA OTANING ROLI. *ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI*, 3(2), 162-167.
8. O’ktamovna, S. M. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA TABIAT BURCHAGINI TAYYORLASH. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 661-667.
9. O’ktamovna, S. M. (2024). EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN PRIMARY GRADES. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 654-660.
10. O’ktamovna, S. M. (2024). PREPARATION OF THE NATURE CORNER IN PRESCHOOL EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 675-681.
11. O’ktamovna, S. M. (2024). BOLALAR NUTQINING TOVUSH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *PEDAGOG*, 7(5), 48-55.
12. O’ktamovna, S. M. (2024). BOLALARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISHINI QO‘LLAB-QUVVATLASH USULLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 223-228.
13. O’ktamovna, S. M. (2024). BOLALARDA INDIVIDUAL RIVOJLANISHNING NEVROLOGIK ASOSLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 211-216.
14. O’ktamovna, S. M. (2024). BOLALARDA HISSIY-INTELLEKTUAL RIVOJLANISH VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 205-210.
15. O’ktamovna, S. M. (2024). BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHI: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUVLAR. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 1(2), 217-222.
16. Shukurova, M., & Hoshimova, M. (2024). SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI VOSITASIDA BOLALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVINI YO’LGA QO‘YISH. *Modern Science and Research*, 3(11), 547-550.
17. Shukurova, M., & Artikova, N. (2024). TARBIYACHI NUTQI UCHUN ZARUR BO’LGAN PEDAGOGIK TALABLARNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(11), 530-533.

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING  
YANGI UFQLARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

10-Mart, 2025-yil

18. Шукрова, М. У. (2024). ПОДГОТОВКА УГОЛОКА ПРИРОДЫ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 668-674.
19. SHUKUROVA, M. (2024). NEUROPEDAGOGY AS A FOUNDATION FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(07), 1-8.
20. О‘крамонва, С. М. (2025). TARBIYACHI PEDAGOGNING NUTQ MADANIYATINING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 317-320.